

**QADIMGI TURKIY TILLAR OILASIGA MANSUB O'RXUN – ENASOY  
YOZUVI YODGORLIKLARINING DUNYO TAMADDUNIDA  
TUTGAN AHAMIYATI**

**Muratova Nafisa Baxtiyorovna**

Ilmiy rahbar

**Jo'rayeva Lobar Akmalovna**

CHDPU O'TA yo'nalishi 2- bosqich talabasi

**ANNOTATSIYA**

*Turk degan nom Turk xoqonligi davrida ilgari ham turkiy tilda so'zlashadigan, irqiy va urf-odat jihatidan bir-biriga o'xshash yoki yaqin turkiy hamda turkiylashgan (masalan, qitaniylar) qavmlarning siyosiy birlashmasini bildirardi.*

***Kalit so'z:** Yodgorliklar, turk xoqonligi, jujanlar, oq xunlar, sosoniylar sulolasi, urxun va enisey yozuvi, Kul tigin bitigtoshi, Bilga xoqon bitigtoshi.*

**ЗНАЧЕНИЕ ПАМЯТНИКОВ ОРХУН-ЭНАСАЙСКОЙ  
ПИСЬМЕННОСТИ, ПРИНАДЛЕЖАЩИХ К ДРЕВНЕТУРЕЦКОЙ  
ЯЗЫКОВОЙ СЕМЬЕ, В МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ**

**АННОТАЦИЯ**

*Название «тюрк» в период Тюркского ханства означало политическое объединение тюркских и тюркизированных (например, киданей) народов, говоривших на тюркском языке и сходных или близких друг другу по расовому признаку и обычаям.*

***Ключевые слова:** Памятники, тюркское ханство, жуужане, белые гунны, династия Сасанидов, урхунские и енисейские надписи, эпитафия Кул-тегин, эпитафия Бильга-кагану.*

## THE SIGNIFICANCE OF ORHUN-ENASAI WRITING MONUMENTS BELONGING TO THE ANCIENT TURKISH LANGUAGE FAMILY IN WORLD CIVILIZATION

### ABSTRACT

*The name "Turk" during the period of the Turkic khanate meant the political association of Turkic and Turkicized (for example, Khitans) peoples who spoke the Turkic language and were similar or close to each other in terms of race and customs.*

**Key word:** *Monuments, Turkish khanate, Jujans, White Huns, Sassanid dynasty, Urhun and Enisei inscriptions, Kul tigin epitaph, Bilga khagan epitaph.*

O'rxun-Enasoy yozuvi, qadimgi turk runik yozuvi tosh, metall, yog'och va toshga o'yib bitilgan qadimgi turkiy yozuvlar. V-VIII-asr (ba'zi manbalarda VIII-X-asr)larga mansub. O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklarining topilish tarixi, bu yodgorliklar yuzasidan XVIII-XIX asrlarda bo'lib O'rxun-Enasoy yozuvi haqida dastlab XVIII-asrning boshlarida rus olimi S. Remezov, keyinroq shved olimi F. Strahlenberg hamda nemis olimi D.G. Messerschmidtlar xabar bergan. Bu yozuv (lar)ning turkiy xalqlarga mansubligini birinchi marta fransuz olimi J.P. AbelRemyza. O'zbekistonda Fitrat, A.Qayumov, N.Rahmonov asardan namunalari va tadqiqot ishlarini chop qildirgan. O'zbek olimlari ham qator fikr-mulohazalar bildirganlar. Bitiktosh ikki qismdan: Kichik va Ulug' bitikdan (muallifi Yo'llig tigin) iborat. Vatan manfaati yo'lida xizmat qilish, mamlakatning mustahkam, osoyishta bo'lishi uchun kurash bitikoshlarda bosh maqsad ekani aytiladi. Asarda Tabg'ach, Tibet, Sug'd, Turgash, Qirg'iz kabi joy nomlari tilga olingan. Enasoy bitiklari marsiya va madhiya janrlarining qadimgi turk adabiyotidagi ildizlari haqida tasavvur beradi. Mazkur yozuv, arab yozuvi singari, o'ngdan chapga qarab yozilgan va o'qilgan. O'rxun-Enasoy yozuvi 38 belgi (harf)dan iborat bo'lib, fonetik yozuv tizimiga kiradi. Har bir tovush yoki tovushlar birikmasi maxsus harflar bilan ifodalanib, bir-biriga ulanmay, yakka-yakka yozilgan. Urxun va Yenisey daryolari

havzalaridan topilganligi sababli shu nom bilan yuritiladi. Tashqi ko'rinishidan got (qadimgi. german) yozuviga o'xshash bo'lganligi uchun runik yozuv deb ham atalgan. Biz bu o'rinda qadimgi turkiy yodgorliklarning yaratilishiga sabab bo'lgan tarixiy sharoit va madaniy muhit to'g'risida qisqacha to'xtalamiz. O'rxun-Enasoy obidalari V-VIII asrlarda qadimgi turk tilidagi va yozuvidagi tarixiy yodgorlik sifatida qadrli. Mo'g'ulistondagi O'rxun va Janubiy Sibirdagi Enasoy daryolari sohillarida topilgani uchun ham shunday nomlangan. Mo'g'ulistondan Shimoliy dengizlargacha, Uraldan Saxalinga qadar davom etgan hududda shu yozuvdagi yodnomalar uchraydi. Shimoliy Kavkazda 15 asrda ham O'rxun yozuvidan foydalanilgan. O'zbekiston hududida (Farg'ona, Surxondaryo v.b. joylar) dan 20 dan ortiq turkiy-run yozuvi yodgorliklari topilgan.<sup>5</sup>

Ma'lumki, turk xoqonligi barpo bo'lmasdan oldingi Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy tarixi jujanlar (manqurtlar) tarixi bilan ham bog'liq. Lekin ungacha ham turkiy qavmlar Markaziy Osiyoning turli hududlarida xonliklarga uyushgan, siyosiy jihatdan esa tarqoq holda yashardilar. Bu qavmlarni jujanlar temir qurollar yasashga, turmushda kerak bo'ladigan ashyolar yasashga majbur qilardilar. Jujan xonlari turkiy qavmlarni "temirchi qullarim" deb haqoratlardilar. Jujanlar asoratidan qutulish uchun 535-yili boshlaangan harakat 545-yilga kelib kuchaydi. Turkiy qavmlar g'arbiy To'ba sulolasi bilan hamkorlikda jujanlarga qarshi kurashga otlardilar. Lekin jujanlar bilan urush boshlash uchun bir bahona kerak edi. Ashin urug'ining yo'l boshchisi Bo'min jujanlar xoni Aynahayning qiziga sovchi jo'natdi. Bo'minning xatti-harakati Aynag'ayga haqorat bo'lib tuyuldi va Bo'minning elchilari orqali unga haqoratomuz javob berdi. Bo'minga aynan shu javob kerak edi. Bo'min vaqtni qo'ldan boy bermay, jangga otladi. Tez orada Bo'min Aynag'ayni tor-mor qildi. Bu voqea 551 yilda yuz bergan edi.

Bo'min jujanlar asoratidan qutulgandan keyin Bo'min Turk xoqonligiga asos soldi. Turk xoqonligi juda katta hududni – SHimoliy Mo'g'ulistondan tortib Amudaryogacha bo'lgan joylarni o'z ichiga olgan edi. SHuncha katta davlatni markazdan turib boshqarish qiyin edi. Shu boisdan Bo'min xoqon Istamini yabg'u

<sup>5</sup> . Eng eski turk adabiyoti namunalari (Tuzuvchi prof.Fitrat). — T.: 1927;

unvoni bilan Turk xoqonligining g'arbiy qismini – O'rta Osiyo qismini boshqarish uchun jo'natdi. (Yabg'u so'zi harbiy unvonni bildiradi, bu unvon Kushon imperiyasidan davom etib kelgan bo'lib, turkiylar oq xunlar sulolasidan o'zlashtirganlar. Yabg'u – g'arbiy Turk xoqonligida oliy unvonning nomi bo'lib, ko'pincha yabg'u qag'an tarzida ham qo'llanadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, yabg'u – xoqonga tengdir.) O'zi esa xoqonlikning sharqiy qismini boshqarish uchun Qoraqurum shahrida maskan topdi.

Turk degan nom Turk xoqonligi davrida ilgari ham turkiy tilda so'zlashadigan, irqiy va urf-odat jihatidan bir-biriga o'xshash yoki yaqin turkiy hamda turkylashgan (masalan, qitaniylar) qavmlarning siyosiy birlashmasini bildirardi. Turk xoqonligi davrida bu jarayon o'z rasmiy maqomiga ega bo'ldi. Shuningdek, qadimgi turk davrida turkiy qavmlar yagona nom bilan “ko'k turklar” deb yuritiladigan bo'ldi. Ko'k turk – ilohiy turk deganidir. Turkiy qavmlar yaratgan mifga ko'ra, ular osmonni – ota, erni ona deb tasavvur qilganlar. Shu bois o'zlarini ham osmon bolalari deb aytardilar va ko'k turk degan mifologik nom ularning rasmiy nomiga aylanib qoldi. Garchi turk yoki turkiy degan nom milodiy V asrlardan qo'llana boshlagan bo'lsa ham, hamma qavmlar va xalqlarning kelib chiqishi kabi, etnik jarayonning shu davrdan boshlanganini ko'rsatmaydi, balki turkiy qavmlar qadim zamonlardan beri bor va ularning qavm sifatida mavjudligini ashyoviy dalillar – arxeologik yodgorliklar tasdiqlaydi. O'rta Osiyo, Oltoy, Qozog'iston kabi tarixi qadim o'lkalardan topilgan inson.

Bo'min xoqon 552 yili olamdan o'tdi. Ota vafotidan keyin, qadimgi turk xoqonligi qonunlariga binoan, to'ng'ich o'g'il Qoraxon taxtga o'tirdi. Lekin oradan bir yo'l o'tar-o'tmas, Qoraxon ham olamdan o'tdi. Uning vafotidan keyin o'rtancha o'g'il Mug'an Turk xoqonligi taxtiga o'tirdi. 576-yili Mug'an xoqon va Istami yabg'u vafot etdilar. Ulardan keyin taxtga o'tirgan Tapar xoqon (576-581), Ishbara xoqon (581-587) lar hukmronligi paytida Turk xoqonligi bilan Eron orasida bir marta urush bo'ldi. Eron sarkardasi Bahrom chubin uch yuz ming kishilik turk qo'shinlarini – Chur bag'a xoqon qo'mondonligidagi lashkarni Hirot bilan Balx orasida tor-mor qildi. O'sha urushda Chur bag'a xoqon halok bo'ldi. Bahrom chubin Buxoro yonidagi

Paykent shahriga bostirib kelib, Chur bag'a xoqonning o'g'li Barmudo tiginni asir qilib oldi. Paykent shahrining xazinasidagi boyliklarni bir necha ming tuyaga yuklab, Eron shahanshoi Xo'rmuzd (Istami yabg'uning qizidan tug'ilgan)ga jo'natdi. Bu safargi urushda Eron g'arb tarafdin hujum qilgan Sharqiy Rum qo'shinlarini ham Kavkaz atrofida tor-mor qildi. Turk xoqonligi qo'shinlari bilan Sharqiy Rum lashkari mag'lub bo'lgan esa-da, Eron xalqaro savdo yo'liga bo'lgan hukmronlikni qaytadan qo'lga kiritolmadi.<sup>6</sup>

Yo'llig' tigin Bilga xoqon tilidan hikoya qilari ekan, turkiy qavmlarning ikki yuz yillik tarixini badiiy yo'sinda ifoda qiladi, turkiy qavmlarning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan goh yuksalishini, goh tanazzulini dardli lavhalarda bayon qiladi. Tabg'ach (xitoy) xalqi turkiy qabilalarning hayotiga, turmushiga doim rahna solib keldi. Birinchi Turk xoqonligi davrida (551-630) mamlakatning parokanda bo'lib qolishiga sababchi, turkiy qabilalarni yo'ldan ozdirgan ham tabg'ach xalqi edi. Bilga xoqon tilidan voqealarni hikoya qilayotgan Yo'llig' tigin tabg'achlar bilan Turk xoqonligi o'rnatgan munosabatni quyidagicha ta'riflaydi: "Bu yerda o'rnashib, tabg'ach xalqi bilan murosaga keldim". Tabg'ach xalqi makkor, ayyor: "Tabg'ach xalqi so'zi shirin, ipak kiyimi nafis ekan. Shirin so'zi, ipak kiyimi bilan aldab, yiroq xalqni shu xilda yaqinlashtirar ekan. Yaxshi qo'shni bo'lgandan keyin yovuz ilmi u erda o'rganar ekan". Makkorlikning keng tarqalgan, ommalashgan usuli shu – avaliga shirin so'zlar bilan yaqinlashtiradilar, keyin qullik, xo'rlash, erkni bo'g'ish. Insoniyat bu ahvolni boshidan ko'p kechirgan.

O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari qadimgi turkiy adabiyotning alohida bir qatlami va yo'nalishi sifatida turkiyshunoslikda kam o'rganilgan. Bu yodgorliklarini tizimli ravishda ilk yozma adabiyotning namunasi sifatida o'rganishni boshlab bergan olim rossiyalik olim I.V.Steblevadir. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarni o'zbekchaga tadbiq qilish, tadqiqot ishlari olib borishda O'zbekistonda ham ma'lum ishlar amalga oshirilgan.<sup>7</sup>

<sup>6</sup> . Abdurahmonov G', Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – T: O'qituvchi. 1982

<sup>7</sup> Rahmonov N. Sodiqov Q O'zbek tili tarixi. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2009

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. N.Rahmonov O'rxun-Enasoy yodgorliklarining turkiy eposlardan o'sib chiqqan asar ekanligini aytib, yodgorliklarni o'rganish asnosida o'zbek xalqi tarixini o'rganishni uzoq asrlardan boshlash kerakligi ta'kidlaydi. Turk xoqonligi madaniyatini o'rganib, shahzodalar Kultegin, Bilgaxoqon va maslahatchi To'nyuquqning qahramonliklari, vatanparvarligi, xalq taqdirini o'zinikidan ustun qo'yish hislatlarini bizga uzoq o'tmishdan qolgan meros ekanligiga e'tibor qaratadi. Turkiy-run yozuvida bitilgan bitiklar O'zbekiston hududidan ham anchagina topilganini, ularning ma'nolarini asarlarida ko'rsatib berdi. Umuman, olimning O'rxun-Enasoy yodgorliklari tadqiqiga bag'ishlab yozilgan asarlarini quyidagicha o'rganish mumkin: O'rxun-Enasoy yodgorliklarining badiiyati o'rganishga bag'ishlangan asarlar: "Toshga bitilgan kitoblar", "Inson ruhining sadosi", "Bitiglar olamida", "Ko'hna bitigtoshlar", "O'zbekistonning ko'hna turkiy-run yozuvlari", "O'zbek Mumtoz adabiyotining namunalari", "O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari" kabi kitoblarida yodgorliklarning ma'nosi, mazmuni, adabiy tomonlari o'rganilgan. Jumladan, Boqijon To'xliyev bilan hammualiflikda yozgan "O'zbekistonning ko'hna turkiy-run yozuvlari" (2006) kitobi O'rxun-Enasoy yodgorliklarining mantiqiy davomi sifatida O'zbekistondan topilgan turkiy-run yozuvidagi topilmalar haqida ma'lumot beradi.<sup>8</sup>

Q.Sodiqov yodgorliklarning tilini, tarixini va falsafiy qarashlarini o'rganib, ilmiy tadqiqotlar yaratish bilan bir qatorda O'rxun-Enasoy yodgorliklarini o'zbekchaga tabdil qildi. O'zbekistondan topilgan bitiklarga asoslanib, O'zbekiston ko'hna turkiy run yozuvlarining makoni bo'lgan degan xulosaga keldi. Yodgorliklar tili, uslubiyati, dialektikasi, fonetikasi va morfologiyasini o'rgandi.

## XULOSA

O'rxun-Enasoy obidalari birinchi navbatda tarixni yoritadi. Xususan, etnik tarix bilan tutashadi. Turkiy qabilalar o'rtasidagi farqlar, asosan, ularning tillari orqali aniqlanadi. Demak, qabilalar tarixini yoritishda ham yodgorliklarning ahamiyati katta. Yozuvning kelib chiqishi, alifbolarning har xilligi, boshqa yozuvlarning turkiy-

<sup>8</sup> N.Rahmonov. Ko'hna bitiktoshlar. — T.: 1990:

run yozuviga ta'siri kabi masalalarga ham obidalar matnini o'rganish orqali javob topish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Eng eski turk adabiyoti namunalari (Tuzuvchi prof.Fitrat).* — T.: 1927;
2. *Yeniseyskaya pismennost tyurkov.* -M,L.: 1952,;
3. *Abdurahmonov G', Rustamov A. Qadimgi turkiy til.* – T: O'qituvchi. 1982
4. *I.V.Stebleva. Poeziya tyurkov U1-U111 vv.* —M.:1964;
5. *A. Qayumov. Qadimiyat obidalari.* — T.: 1971.
6. *N.Rahmonov. Ko'hna bitiktoshlar.* — T.: 1990:
7. *N.Rahmonov. Turk xoqonligi.* — T.: 1993.
8. *Rahmonov N. Sodiqov Q O'zbek tili tarixi. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2009*